

Dildora Oxbutayeva
“Nurli maskan” internati ona tili va adabiyot o’qituvchisi

SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA OZODLIK NAFASI

Annotatsiya: Ko'ngil ozuqasi bo'l mish ijod olamining yana bir sulton Shavkat Rahmon va uning she'rlari tahlilini bugun yoritib berishni maqsad qildik. Shoirning yurtm deb jon kuydirgan har bir misrasidagi manoni yoritib beramiz.

Kalit so'zlar: Aijodiy meros, Shavkat Rahmonov, millatsevar shoir, rangin lahzalar, Muhabbat Hamrabyeva.

Umr- oqar daryo, ko'z ochib yumguncha o'tib ketar ekan. Bu dunyoda mazmunli yashash uchun kurashadigan, bir yaxshi nom qoldirishga intilib, hayotda o'z o'rnimni topsam deydigan insonlar bisyor. Ijod deb atalmish zahmatli Yo'ldagi xizmatlari tufayli abadiyat oralab yashayotgan ajdodlarimizning teran xotirasi, ijodiy merosi hamisha bizga ruhan tetiklik bag'ishlaydi.

[Odamlar bor mangulikka tirikdir, Odamlar bor tiriklikda o'likdir.]

Vaholanki, Shavkat Rahmon mangu tirik shoirlar sirasidan. Chin shoir mangu tirik. Bu haqda Muhabbat Hamroyeva shunday yozadi:

“Chin millat shoiri haqida gap ketsa, ko'z o'ngimda Shavkat Rahmon siymosi gavdalanadi.”¹

Millatsevar shoir bor yo`g'I qirq olti yilgina umr kechirdi, xolos. U deyarli yarim asrlik umrini uyg`oq qalb bilan o'tkazdi. Yozganlari esa, yurakning kumush sandiqchalarida gavhar misol hamon asrab kelinayotir. Uning she'rlarida ozodlik, tinchlik nafasi ufurib turadi. Bir qo`li bilan borliqni erkalasa, ikkinchisi bilan shurolar tuzumidagi xoyinlarning yuzlariga uradi.

Har nokas kelar-u, borini olar,

Qo`ynida to`lg`ongan yorini olar.

Qovushgan qo`liga kulib qarar u,

Og`ir nigoh bilan jonini olar.

Shoir o'z surati bilan baxtli bolalarning dunyosini buzayotgan xoyinlarga jonom, jigarimsan deb murojaat qilar ekan, o`zining o'tkir tili bilan yo'qotilgan erkinlik masalasini, og`ir turmush tarzi-yu, jamiatning og`riqli holatlarini qalamga oladi.

Jonom, jigarimsan, sen-da odamsan,

Loaqlal ko`zingda bir yosh ko`rsaydim.

¹Muhabbat Ato. “So'nmas yulduzlar”. Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti 2010-yil.

Loaqlal qovushib qolgan qo`lingda,

Yovlarga atalgan bir tosh ko`rsaydim.

Seni alqadilar kiftinga qoqib,

Maqtovlar yog`dirib oq qush pariday.

Men esa, yig`ladim ona yerimning,

Toptalgan, qorong`u og`ushlarida.

U umrining so`ngiga qadar xalqim deb yonib yashadi. O`z she`rlari bilan xalqning dard-u iztiroblari, quvonch-u armonlarini kuyladi. Uning ijodida yurtdoshlarimizning qalbidagi orzu-istiklari ham suratlangan.

Bu so`zni bir umr aytmay yashadim,

Har shodlik kelganda yurdim sekinroq.

G`am so`zin elimdan avvalroq aytdim,

Baxt so`zin aytaman eldan keyinroq.

Shavkat Rahmon xalqparvar, millatsevar shoir. She`rlarida tabiat va jamiat uyg`un holda tasvirlanadi. Ularda ichki kechinmalarning rangin lahzalarini his etish mumkin. Uning haqiqiy vatanparvarligi o`jar misralaridan shundoqqina sezilib turadi.

Naqadar kechikib angladim seni,

Chaqinlar yo`q qilsin meni da`fatan.

Ayt, qanday chidayman bunday xo`rlikka?

Ayt, qanday yotaman qa`ringda, vatan?

Vatan, shoir yuragining tub-tubida joylashgan. Erkinlik yo`qolib, yashirin noroziliklar ko`paygan bir paytlarda vatanni madh etishning o`zi bir jasorat edi. Uning e`tiqodicha, chinakkam shoir jasorat so`zining tarjimoni bo`lishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shavkat Rahmon har bir she`riga ulkan ma`suliyat bilan yondoshadi. Ularda lirik qahramonning tuyg`ular falsafasini ko`rasiz. Tabiatning maftunkor manzaralarini chizish bilan bir qatorda, jamiatning og`riqli holatlarini ham qalamga oladi. She`rlarida ozodlik nafasi, baxt nashidasi ufurib turadi. Uning barcha xulosalari jamiatning farovonligi xususidadir. Ijodiy merosi adabiyot ixlosmandlari qalbida mangu yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Muhabbat Ato. “So`nmas yulduzlar” Toshkent: “Tafakkur qanoti” 2010-yil.

2.Shavkat Rahmon. Saylanma . Toshkent “ sharq” 1997-yil.